



O'ZBEK URUG' NOMLARINING TOPONIMLARDA QO'LLANILISHI

M.Rahmonov.

Tilshunoslik kafedrasida dotsent filologiya fanlari nomzodi

Abdusalomova Nodira

FarDU filologiya Tilshunoslik 1- kurs magistr

Annotatsiya: *Toponimikada o'rganiladigan geografik nomlarning eng katta tarmog'i ma'muriy-hududiy birliklar, aholi maskanlari nomlarini o'rganuvchi soha - oykonimika (yunoncha, "oykos" - uy, turar joy, makon) deb ataladi. Oykonimlar tarkibiga shahar, qishloq, shaxarcha, ovul, mahalla, guzar, ko'chalar kirib, joy nomlari orasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan guruhni tashkil etadi. Bu nomlar joyning tabiiy va iqtisodiy geografik sharoiti, foydali qazilmalari, aholisining milliy-etnik tarkibi, kasb-hunari, tarixda yuz bergan muhim voqea va xodisalar haqida batafsil ma'lumot beradi. Ushbu guruhga kiruvchi toponimlar tarkibida kishilarning ism-familiyasi bilan bog'lik bo'lgan oykonimlar ko'p uchraydi, ularni antropooykonimlar deb, urug', qabila, elat, xalq, millat kabi etnik birliklar nomi bilan atalgan oykonimlarni etnooykonimlar deb atash qabul qilingan.*

Kalit so'zlar: *toponim, etnonim, oykonim, nom, urug', vosita, tarix, xalq.*

KIRISH

Odatda xalq, urug', qabila nomlari ilmiy tilda etnonim deyiladi. Juda ko'p joy nomlari etnonimlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Etnonimlardan hosil bo'lgan joy nomlari **Toponimlar** deyiladi. Toponimlarni o'rganib, tarixiy davrlarda qaysi xalqlar, urug'lar qayerlarda yashaganini, qayerlarga ko'chganligini aniqlash mumkin.


Dunyo xaritasida Toponimlarni juda ko'p. Ko'pchilik mamlakatlarning nomlari xalq nomidan olingan, xalq nomiga - iya, - iston qo'shimchalari qo'shib, mamlakat nomi hosil qilingan. Masalan, alban - Albaniya, portugal - Portugaliya, dan - Daniya, rumin - Ruminiya, bolgar - Bolgariya, turk - Turkiya, afg'on - Afg'oniston, qirg'iz - Qirg'iziston, tatar - Tatariston, tojik - Tojikiston va h.k.⁷⁸

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Faqat davlatlar nomigina emas, balki etnonimlardan hosil bo'lgan boshqa geografik obyektlar nomlari ham ko'p uchraydi, Masalan, Malik cho'li (Malik urug'i nomidan), Baraba dashti (Baraba urug'i nomidan), shuningdek, Qizil shahri, Eri, Guron ko'llari, Karib dengizi, Appalachi tog'lari, Ayova, Delaver qabilalar nomidan olingan.

H.H. Hasanov "Geografik nomlar siri" (1985) kitobida O'rta Osiyo toponimlari hosil qilgan urug'lardan 76 tasini misol qilib ko'rsatadi. Shulardan ayrimlarini keltiramiz; Adoq, Andi, Arlot, Arg'un, Asaka, Bag'ish, Beshkapa, Boyovut, Bayot, Do'rmon, Yorboshi, Kaltatoy, Malik, Ming, Mitan, Mo'g'ul, Nazarbek, Nayman, Nukus,

⁷⁸ Ahmadaliyev Yu. va boshqalar. Farg'ona vodiysi: shahar, qishloq va mahalla nomlari. T.: 2017.





Olot, Savay, Sayot, Saroy, Toyloq, Uzun, Chandir, Chimboy, Chig'ay, Chig'atoy, Yuz, Qalmoq, Qashqa, Qoraxitoy, Quti, Qo'ng'iro⁷⁹.

Ba'zi xalqlar nomi aksincha mamlakat nomidan olingan. Bularga indoneziyaliklar, avstraliyaliklar, braziliyaliklar, kubaliklar, isroilliklar, falastinliklar, ekvadorliklar, amerikaliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Geografik nomlar albatta biror xalq tilidan ko'yiladi, buning uchun xar bir geografik nomning etnologik asosi mavjud bo'ladi. Bu yerda geografik nom etnonim bo'lishi (xalq, urug', kabila; shart emas. U tabiiy, iqtisodiy-geografik toponimlarda xam maglum xalq tilidan qo'yilgan bo'adi. Shuni xisobga olib xar qanday geografik nomning qaysi xalq tilidan qo'yilganligiga e'tibor qaratiladi. Bu jixatdan toponimlarni etnologik jixatdan tadqiq etishning axamiyati juda kattadir. Biroq bu usulni qo'llashda xam nixoyatda sinchikovlik talab etiladi. Sababn, etnooykonimlar (urut, qabila, millat, xalq nomlari bilan atalgan joy nomlari) har doim xam shu yerda yashagan xalqning (etnosni) nomini bildiravermaydi. Masalan, Ruminiya qachonlardir bu yerni bosib olgan rimliklar nomi bilan atalsa, Boburdan so'ng Farg'ona va Samarqandda qolgan turklar o'zlarini o'zbeklar deb, vatandoshimizni Xindistonda tuzgan davlati esa "Buyuk mo'g'illar imperiyasi" deb nomlanganligini keltirish kifoya.

Takalik nomini kelib chiqishi Markaziy Farg'ona hududida "Takalik" nomi bilan bog'liq 4 ta man zil bor. Shulardan 3 tasi Yozyovon, 1 tasi Ulug'nor tumanida bo'lib, ularning hammasini kelib chiqishi 2Takalik — qadimiy nomi Ovul bo'lgan qoraqalpoq qishlog'i bilan bog'liq. Takalik qishlog'ining nomlanishi, ayrim kishilar rivoyat qilishayotganidek, qishloq o'rnida ilgari yovvoyi takalar bo'lganligi, ularni ovlab kelgan mehmonlarga ziyofat berish bilan bog'liq emas. Avvalo yovvoyi echki arxarlar cho'lda emas, tog'larda bo'lishadi. Turkiy xalqlarnipg aksariyatida, jumladan qirg'izlar, turkmanlar va qoraqalpoqlarda Taka urug'i bor. Qishloq nomi ana shu urug' nomi bilan bog'liq bo'lishi kerak⁸⁰.

Qum qishloq. Bu qishloq dastavval Davkarqum, so'ngra Mo'naqboy to'pi, keyinchalik Qumqishloq deb atalgan. Qishloqqa asos solgan Davkarboy asli Batkentning Urovudidan bo'lib, Uchko'prikning Jalayer (asli Jalo yir)igaga kelib o'rnashib qolgan. Norbo'ta, Erbo'ta, Ermag maxsum ismli o'g'illari bo'lib, Ermat maxsum farzandlari Mo'naqboy va Isaqboylar bilan Markaziy Farg'ona hududiga ko'chib kelishib, Xonobodnpng biqinidagi Yozyovonsoy sohilida joylashgan marg'ilonlikbir boyga qarashli yerlarni sotib oladi.

O'sha paytlar bu yerlar qamishzor, to'qayzorlardan iborat bo'lib, to'rtta katta qum barxanlari bo'lgan. Ular qumlarni o'zlashtirib, asosan qovun tarvuz, jo'xori ekishadi, chorvadorlik bilan shug'ullanishadi. Ermat maxsum o'rnashgan yerga uning hamyurtlari bo'lgan qirg'izlarning yovkesak, teyit, do'mor, qipchoqlarning

⁷⁹ Ahmedov B. O'zbek ulusi. T.: Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosinashriyoti. 1992.

⁸⁰ Dadaboyev Ya. Xo'qandi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanishtarixi. "Farg'ona" nashriyoti, 2007





nuyg'it urug'i vakillari kelishib, oldin teng sheriklikka dehqonchilik qilishib, bora bora shuyerda o'rnashib qoladilar.

Suvliariq qipchoqdar qishlog'i toponimikasi. Yozyovon tumanining reliefi shundayki, har qaiday suv tarmog'i — xoh tabiiy, xoh sun'iy bo'lsin, odatda shimolga, faqat ayrim birlari g'arb tomonga qarab oqadi. Lekin kun chiqar tomonga qarab oqadigan birdan-bir suv manbayi bor, bu Suvliariqdir. G'aroyib "teskari" oqadigan ariqni qachon va kim tomonidan chiqarilganini hech kim bilmaydi. Faqat odamlar orasida "Hazrati Xizr alayhissalom hassasi bilan chizib ketgan", degan rivoyat yuradi. Suvliariq qishlog'i o'z nomini mana shu ariqdan olgani shubhasiz. Qishloqda aksari turkiylarning qadimiy va salmoqli urug'i bo'lgan qipchoqlarga mansub aholi istiqomat qilishini yozyovonliqlarning o'zlari ham bilmaydilar. Buni qishloq ahlining o'zi ham har yerda aytavermaydi. Bilishimizcha, bunga ikkita sabab bor. Birinchisi, XIX asr ning 2-yarmida — Xudoyorxon zamonida yuz bergan qipchoq qirg'ini bilan bog'liq qonli voqealardai so'ng qipchoqlar juda ehtiyotkor bo'lib qoldilar. Ikkinchisi esa ularning aksariyati o'z urug'larining tarixini yaxshi bilmasliklarida deb o'ylaymiz.

XULOSA VA MUNOZARA:

1. Toponimlarni umumiy jihatdan tahlil qilish birinchi navbatda o'tmish ajdodlarimiz - turkiy va boshqa xalq, elat, qabila-urug'larning hozirgi Farg'ona viloyati Yozyovon tumani hududining qayerlarida yashaganliklari, qaysi hududlar bo'yicha ko'chib yurishgani va hozirda ularning zurriyodlari qaysi joylarda istiqomat qilib turganligini aniqlash imkoniyatini beradi.

2. Toponimlarni umumiy jihatdan birinchidan, urug' va qabilalarning yashash o'rnini ko'rsatsa, ikkinchidan, ularning ko'chish va tarqalish joylarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.


3. Toponimlarni ko'p asrlar davomida tabiiy holda yuzaga kelgan nomlar bo'lib, ularning ijodkori, yaratuvchisi oddiy xalq hisoblanadi. Bu nomlar, bir tomondan, ma'lum ob'yektning atoqli oti, juda qadimiy so'z bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqning tarixini aniqlashtirishga yordam beradi.

4. O'rganilayotgan hudud Buyuk Ipak yo'lidagi eng muhim bekatlardan biri bo'lganligi bois, turkiy xalq, elatlar bilan bog'liq Toponimlarni ko'p va serqirra. Shu bois Toponimlarniga xos yashovchanlik va barqarorlik ularni o'zbek tilining qadimgi boyluklaridan biri sifatida talqin qilishga imkon beradi.

5. Davrlar mobaynida Toponimlarnida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi:

- islom dinining kirib kelishi tufayli arablar bilan bog'liq Toponimlarniyuzaga keldi, rivojlandi;

- chor Rossiyasining istilosi va sho'rolar siyosati tufayli xalqimiz tarixi, turmush tarzining turli bosqichlarida yuzaga kelgan etnonimlar, antroponimlar va diniy e'tiqod, tushuncha, tasavvurlar bilan bogliq toponimlarga eskilik sarqiti





sifatida qaralib, ular boshqa nomlarga o'zgartirildi;

- Respublikamizda o'ziga hos toponimik siyosatning yuzaga kelishi Farg'ona viloyati hududidagi ko'plab Toponimlarni qayta tiklash uchun asos bo'ldi, tadqiqot natijasida to'plangan va hozirda unutila boshlangan ayrim Toponimlarni tiklash uchun imkoniyat yaratildi.

6. Toponimlarni o'rganish davomida boshqa viloyatlar hududida uchramaydigan umumiy hodisa qayd qilindi: ma'lumki, qipchoq uruglariga tegishli ko'plab Toponimlarning barchasini aniqlash va qayd etish bir oz qiyinchilik tug'diradi, chunki qipchoq urug'i o'zbek, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq kabi turkiy tilli urug'-qabila birikmalari tarkibida ham uchraydi. Ushbu holat viloyatdagi o'zbek va qirg'iz xalqlari tarkibida alohida, bir-birini takrorlamaydigan tarzda uchraydi.

7. Toponimlarni to'plab tadqiq etish o'zbek tilidagi atoqli otlar tizimining shakllanish bosqichlari xususida qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, madaniyat va ma'naviyatimizning turli yo'nalishlari bo'yicha keng qamrovli izlanishlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Toponimlarni turli urug' va qabilalar yoki ularning vakillari jamoa bo'lib yashagan joydagina vujudga keladi⁸¹.

9. Farg'ona viloyati Yozyovon tumani toponimlarni ichida etnooykonimlar asosiy o'rinni egallaydi. Toponimik materiallardan ma'lum bo'lishicha, muayyan hududning toponimiyasi boshqa toponimlardan leksik, fonetik jihatdan farq qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmadaliyev Yu. va boshqalar. Farg'ona vodiysi: shahar, qishloq va mahalla nomlari. T.: 2017.

2. Ahmedov B. O'zbek ulusi. T.: Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1992.

3. Ahmedov B. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI- XVIII vv. (pismennyye ramyatniki) T.:Fan, 1985.

4. Гумилев Л. Этногенез и биосфера земли. –Л.: Гидрометеиздат, 1990.

5. Dadaboyev Ya. Xo'qandi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanish tarixi. "Farg'ona" nashriyoti, 2007.

6. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. T.: "Fan" 1968

7. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati.- T.: O'qituvchi, 1977.

8. Devoni lug'otit turk. M.Koshg'ariy.

⁸¹ Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. T.: "Fan" 1968 Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati.- T.:O'qituvchi, 1977.

